

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**«TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI»
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

“Ekologiya va huquq” fakulteti

“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrası

“SUV RESURSLARIDAN MUKAMMAL FOYDALANISH”

fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA

(sirtqi ta‘lim uchun)

TOSHKENT–2023

Ushbu ko‘rsatma universitet Ilmiy–uslubiy kengashining 2023-yil 12-iyulda bo‘lib o‘tgan 6–sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

“Daryo havzasini suv resurslaridan mukammal foydalanish” (sirtqi ta’lim uchun) mavzusida kurs ishini bajarishga mo‘ljallangan ushbu uslubiy ko‘rsatmada kurs ishini bajarishni tashkil qilish tavsiyalari berilgan. Kurs ishining maqsadi, vazifalari va mavzulari aniqlangan. Hududning tabiiy sharoitini, iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflash, suv resurslarini baholash, ulardan foydalanish yo‘llari, suv xo‘jaligi majmualarini rivojlantirish istiqbollari, suv iste’mol qilish va oqova suv chiqarish me’yorlari, turli davrlar uchun suv xo‘jalik balansini tuzishni va tahlil qilishni, daryo havzasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan suv xo‘jalik va suvni muhofaza qilish tadbirlarini asoslash hamda ularni hayotga tadbiq qilish uchun sarflanishi zarur bo‘lgan sarmoyani hisoblash ko‘rib chiqilgan.

Tuzuvchilar: Mavlyanova D.A. – assistent
Qahhorova H.A. – 2 kurs magistranti

Taqrizchilar: Abbosxonov M. – “Toshkent shahar suv ta’minoti”
MChJ direktori, t.f.n., PhD
Gapparov F. – “Gidrologiya va gidrogeologiya”
kafedrasi professori, t.f.d., “TIQXMMI” MTU

KIRISH

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021–2023 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–5005–sonli qarori, 2023-yil 01-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–107–sonli qarori, 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5742–sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 17-iyundagi PF–5742–sonli farmoni)"gi 1024–sonli qarorlari qabul qilinishini keltirishimiz mumkin.

Suv resurslaridan foydalanishni yanada oqilona rejalashtirish maqsadida alohida suv xo'jalik ob'yektlari, daryo havzalari, yirik daryolarning irmoqlari bo'yicha katta miqyosda suv resurslaridan mukammal foydalanish shakliy loyihalari (sxemalari) ishlab chiqiladi. Bunday shakliy loyihani malakali, ilmiy asoslarni va amaliy mahoratni hamda "Daryo havzasining suv resurslaridan mukammal foydalanish" fanini to'la egallagan mutaxassisgina muvaffaqiyat bilan ishlab chiqishi mumkin. Kurs ishi alohida daryo havzasi yoki uning bir qismi va kanallar uchun bajarilishi mumkin.

I–BO‘LIM. Havzaning tabiiy va iqtisodiy sharoiti

1.1. Havzaning tabiiy sharoiti va geografik joylashishi

Farg‘ona vodiysining sharqiy chekkasida, Baliqchi qishlog‘i yonida Norin daryosi bilan Qoradaryo qo‘shilgan joydan Sirdaryo deb ataladi. O‘zbekistonning Andijon, Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning Sug‘d viloyati va Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston va Kizilo‘rda viloyatlari bo‘ylab avval g‘arb, janubi–g‘arb tomon, so‘ngra esa shimoliy, shimoli g‘arbga oqib borib, Orol dengiziga quyiladi. Uzunligi 2272 km, Norin daryosining boshlanish joyidan – 3018 km. Daryo havzasining maydoni taxminan 462000 km², uning asosiy suv hosil bo‘ladigan qismi esa 219000 km². Sirdaryo eng sersuv daryo hisoblanadi.

Sirdaryo havzasining umumiy maydoni qariyb 345 ming km²ni tashkil etadi. Asosiy daryo Norin va Qoradaryoning birlashishi natijasida hosil bo‘ladi va 2800 km uzunlikka ega. Uning 2000 km O‘zbekiston hududidan oqib o‘tadi. Sirdaryo va uning irmoqlari suvini qor hamda muzliklardan oladi. Sirdaryoning suv resurslari o‘rtacha 41,6 km³ ni tashkil qiladi. Uning suv oqimining asosiy miqdori (qariyb 70 foizi) havzaning yuqori qismida – Farg‘ona vodiysidan chiqquncha shakllanadi. Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida daryoga o‘ng tomondan ko‘plab irmoqlar, chapdan esa ko‘plab soylar kelib quyiladi lekin ularning suv miqdori ancha kam. Farg‘ona vodiysiga maydoni 94 ming km²dan iborat tog‘li zonalardan oqib keluvchi hisobga olingan jami ustki irmoqlar yiliga o‘rtacha 25,5 km³ ni tashkil etadi.

Sirdaryo oqimi To‘xtagul suv omborining irrigatsiya–energetika tartibida ishlash sharti bilan 34 km³ miqdorda belgilangan. Daryoning Tojikiston hududidagi o‘rta oqimida joylashgan Qayroqqum suv omborining ishchi sig‘imi 2,5 km³ ni tashkil etadi. 4,7 km³ foydali sig‘imga ega. Chordara suv ombori Qozog‘iston Respublikasi etagidagi suvdan foydalanuvchilar uchun irrigatsiya tartibida ishlaydi. Chordara suv ombori 1965 yilda qurilib 1965–1968 yillar suv bilan to‘ldirilgan. O‘zbekistonda sersuv yillari 63 km³ gacha, jumladan sug‘orish uchun 59 km³ suv iste‘mol qilinadi. Suv kam bo‘lgan yillari esa bu ko‘rsatkich 54,2 km³, jumladan sug‘orish uchun 49,0 km³ga pasayadi. Bu belgilangan limit va yuzaga keladigan real vaziyatga qarab tuzilgan suvdan foydalanish darajasidan juda kam.

Sirdaryo havzasida suv xo‘jaligidagi vaziyat so‘nggi yillari To‘xtagul gidrouzelining energetik tartibda ishlashga o‘tkazilishi munosabati bilan keskinlashdi (suv omborining to‘liq sig‘imi 19,5 km³). Gidrouzelning energetik tartibi qishda suv o‘tkazishni sekundiga 180 m³ dan sekundiga 360 m³ ga ko‘paytirishni nazarda tutadi. Ishlash tartibidagi bu o‘zgarishlar Sirdaryo havzasida vegetatsiya davrida bir yilda kafolatlangan suv yetkazib berish hajmining 4,5–5,0 km³ ga kamayishiga olib keldi. Shundan yiliga 2,5 km³ O‘zbekiston ulushiga to‘g‘ri keladi. Xususan, Farg‘ona vodiysida yoz davrida suv taqchilligi yiliga 1,5 km³ ga yetadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududidagi Sirdaryo oqimining quyi qismida ham ahvol shunday. Janubiy Mirzacho‘l kanali asosiy suv yo‘lining suv o‘tkazish qobiliyati sekundiga 330 m³ ni tashkil etadi. Bu Mirzacho‘l va Jizzax cho‘lining 450 ming gektar yerini sug‘orish uchun yetarli emas. Ushbu hududda

suv ta'minoti 65–70 foizdan oshmaydi. Qishloqda yashovchi bir nafar kishiga 0,19 gektar sug'oriladigan yer to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 0,27 gektarni tashkil etadi. Biroq bir gektar maydonda paxta va bug'doy yetishtirish o'rtacha respublika ko'rsatkichidan 1,3–1,5 marta oshadi. Vodiyda irrigatsiya tizimining ko'p tarmoqliligi bu yerning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bog'lovchi kanallarni ko'plab yirik va kichik tizimlar kesib o'tadi. Ular yordamida Norin, Qoradaryo va Sirdaryoning suvi kam tizimlari suv bilan ta'minlanadi. Sug'orish tarmog'ining samaradorligi pastligi bilan xarakterlanadi: 57 foizdan ortiq bosh va xo'jaliklararo kanallar hamda deyarli (90%) barcha xo'jaliklararo suv tarmoqlari o'zani tuproqdan va qayta qurish, ta'mirlash va xizmat ko'rsatishga muhtoj. 1994 yildan boshlab, To'xtagul suv omborining ishlash tartibini o'zgartirish yozgi irrigatsiya uchun suv chiqarishning keskin pasayishi va qishki suv chiqarishning ko'payishiga olib keldi. O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra (2005), birgina Namangan viloyati bo'yicha yozda suv yetkazib berish taqchilligi 0,9 km³ni tashkil etadi. Suv o'rtacha bo'lgan yilda suv taqchilligi 57–61% atrofida bo'ladi (iyun–avgust), 85 foizgacha (sentyabr) tashkil qiladi. Norin daryosi oqimi kuz–qish davrida tabiiy ko'rsatkichdan 2 baravar ko'payadi, yoz oylarida esa 1,9 marta kamayadi. Suvni yetkazib berishdagi mutanosiblikning yetishmasligi kanallar va inshootlardan foydalanishga o'z ta'sirini o'tkazib, ularning doimo ekstremal sharoitlarda ishlashiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ularning barvaqt ishdan chiqishiga olib keladi.

O'rta oqim. Sirdaryoning o'rta oqimi chap qirg'oqda Mirzacho'l va Jizzax cho'lini, o'ng qirg'oqda tog'oldi va Toshkent oldidagi vohani qamrab oladi. Hudud ma'muriy jihatdan uchta yirik – Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatiga bo'linadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 985 ming gektarni tashkil etadi. Shuning 390,9 ming gektari Toshkent viloyati, qolgan Sirdaryo (293,6 ming gektar) va Jizzax viloyatiga (300,5 ming gektar) to'g'ri keladi. Mirzacho'l va Jizzax cho'lining asosiy suv resurslari manbai Sirdaryo sanaladi: bunda Jizzax cho'lidagi tog' soylari va suv oqimlarining ham o'z hissasi bor. Toshkent vohasida esa Chirchiq, Angren, Ohangaron va Sirdaryo ana shunday manba hisoblanadi. So'nggi o'n yilda Chordara suv omboridan Arnasoy ko'l tizimiga suv o'tkazishning ko'payishi bilan bog'liq yangi ekologik hamda ijtimoiy–iqtisodiy havflar yuzaga keldi.

Arnasoy ko'l tizimi atrofidagi qishloq xo'jalik yerlarini, qishloq infratuzilmasini himoya qilish, inson va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun hukumat tomonidan 600 million m³ foydali hajmdagi va yuzasi 140 km² maydonga teng Arnasoy suv ombori, himoya dambalari, turli inshootlar va boshqa infratuzilmalar barpo etildi. Viloyat boshqaruv organlari ham vaziyatni barqarorlashtirish ishlarida faol ishtirok etmoqda.

1.2. Iqlimi

Ob–havosi keskin o'zgaruvchan va quruq. Yillik o'rtacha temperaturasi 14°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi shimolida – 6°, janubida – 2°. Qishda havo tez soviydi va temperatura – 30° gacha (Gulistonda – 35°) pasayadi. Ba'zan, qish

o'rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko'klamda va erta kuzda ham sovuq tushib o'simlikning o'sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o'rtacha temperaturasi 27–29°. Yozda temperatura 32–45° gacha ko'tariladi. Ko'pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o'simliklar rivojlanishiga yomon ta'sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yogin 180–220 mm, asosan, qishda yog'adi. Yozda kuchli bug'lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning (Sharof Rashidov, Oqoltin, Guliston tumanlari) tuprog'ini sho'r bosadi. Noyabrdan martgacha tez-tez esib turadigan "Bekobod shamoli" tezligi 20–25 m/sek (Boyovut tumanida 40 m/sek) ga yetadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chiqayotgan g'ozalarni ba'zan nobud qiladi. Keyingi yillarda ixota daraxtzorlari barpo qilindi.

1.3. Tuproq–meliorativ sharoiti

Tuproqlari, asosan, och tusli kuchsiz joylashgan bo'z tuproq bo'lib, kam va o'rtacha sho'rlangan, mexanik tartibiga ko'ra, qumoq va soz tuproqlardir. Tekisliklarda sho'rxok va sho'rxoksimon tuproq uchraydi. Yer osti suvining chuqurligi 5–6 m. Sho'ro'zak massivida, hali o'zlashtirilmagan pastqam joylarda sho'rxoklar keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerlarning 32% sho'rlangan, 25% kuchsiz sho'rlangan, 16% sho'rxoklardan iborat.

1.4. Geologik va gidrogeologik sharoiti

Sirdaryo havzasi Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Qozog'iston respublikalari hududida joylashgan. Sirdaryo havzasi 462000 km² maydonni egallaydi, shundan 223000 km² ga yaqini havzaning tog'li qismiga to'g'ri keladi. Shimoldagi havzaning tabiiy chegaralari Terskey–Olatov, Qirg'iz, Talas Olatau va Qoratorov tizmalari; janubi va sharqida havzasi Oqshiyroq, Borko'doy, Atboshi, Oloy, Turkiston va Nurotov tizmalari bilan chegaralangan. Havzaning eng baland nuqtalari Oloy va Turkiston tizmalarida joylashgan bo'lib, ularning ba'zi cho'qqilari dengiz sathidan 6000 m gacha ko'tariladi.

Ko'p tizmalarning baland bo'lishiga qaramay, Sirdaryo havzasida baland tog' qorlari va muzliklari janubda joylashgan Amudaryo havzasiga qaraganda ancha kam rivojlangan. Bu Sirdaryo suv havzasining o'rtacha balandligidan pastligi, shuningdek, havzaning eng baland tizmalarining o'ta noqulay namlik sharoitida bo'lishi bilan izohlanadi. Havzadagi daryolarning oziqlanish tabiati va rejimi muzliklarning rivojlanishi va baland tog' qorlariga to'liq mos keladi. Iyul–avgust oylarida sel to'lqinining maksimal ko'tarilishi bilan muzlik–qor bilan ta'minlangan daryolarga Katta va Kichik Norin, Norinning yuqori oqimi va Sirdaryoning chap irmoqlari – Oqsuv, Isfara, So'x, Shoximardon, Isfayramsoy kiradi. Oloy va Turkiston tizmalaridan oqib o'tadigan ba'zi boshqa daryolar. Sirdaryoning eng yirik irmoqlari – Norin (quyi oqimida), Qoradaryo va Chirchiq qor–muzliklari bilan oziqlanadigan daryolarga may–iyun oylarida eng ko'p oqib tushadi.

Havza hududi janubi–sharqdan shimoli–g'arbga cho'zilgan; janubi–sharqiy qismi tog'li o'lka, shimoli–g'arbiy qismi tekislik xususiyatiga ega, bu yerdagi suv

havzasi aniq ifodalanmagan. Sirdaryo havzasi daryolarining suv resurslari bir yilda oʻrtacha suv miqdori $36,0 \text{ km}^3$ ni tashkil qiladi. Havzaning suv xoʻjaligi tizimi muhandislik inshootlari, jumladan, suv omborlari, sugʻorish kanallari va kollektorlarning keng tarmogʻidan iborat. Havzadagi yirik suv omborlarining umumiy hajmi 34 km^3 dan ortiq, yaʼni. suv omborlarida yillik oqim hajmi toʻplanishi mumkin. Tuzli chiqindi koʻllar havzaning oʻrta va quyi qismlarida joylashgan boʻlib, kollektor–drenaj suvlarining choʻl botqoqliklari va botiqliklariga burilishi natijasida hosil boʻladi. Eng katta koʻl Aydarkoʻl boʻlib, uning hajmi $11,6 \text{ km}^3$. Sirdaryo havzasi tabiiy va sunʼiy suv oqimlari – daryolar, kanallar va kollektorlarning murakkab oʻzaro toʻqilishidir (kanallar va kollektorlarning uzunligi daryo tarmogʻining uzunligidan sezilarli darajada oshadi). Sirdaryoning aksariyat irmoqlari Fargʻona vodiysining togʻli doirasidan quyiladi (oʻngda – Kosonsoy, Gʻavasoy va Chadaksoy; chapda – Isfayramsoy, Shoximardon, Soʻx, Isfara va Xoʻjaboqirgʻon) va ularning deyarli hech biri oʻz suvini olib kelmaydi, chunki ular sugʻorish uchun ajratiladi. Vodiya quyiladigan daryolardan 700 ga yaqin, vodiya ichida Sirdaryodan 50 ga yaqin kanallar tortilgan. Qoradaryodan – Andijonsoy, Shaharxonsoy va Savay; Sirdaryodan – Oxunboboeva. Togʻ daryolari va Sirdaryoga 100 dan ortiq kollektor va oqizmalar, jumladan, Qoradaryoga 43 ta va Sirdaryoga 45 ta suv yetkazib beradi; eng yirik kollektorlari – Sarisu, Qoragugon, Severo–Vagdadskiy. Fargʻona vodiysidan chiqib ketayotib, Sirdaryo Farhod togʻlarini kesib oʻtib, Bekobod choʻqqilarini hosil qiladi va shimoli–gʻarbga burilib, Toshkent–Holodnostepskaya chuqurligini kesib oʻtib, kengligi 10–15 km boʻlgan keng, baʼzan botqoqli sel boʻylab oqadi. Sirdaryoga oʻrta oqim (Fargʻona vodiysidan Chordara suv omboriga chiqish joyidan), Oxangaron, Chirchiq va Keles quyiladi. Janubiy Golodnostepskiy kanali Sirdaryodagi Farhod gidroelektr majmuasidan boshlanadi. Quyi oqimida Sirdaryo Qizilqumning sharqiy chekkasidan oʻtadi; bu yerdagi daryo tubi atrof–muhitdan baland, oʻralgan va beqaror; tez–tez suv toshqinlari sodir boʻladi. Oxirgi irmogʻi Arys (oʻngda); Qoratorov tizmasidan oqib chiqadigan mayda daryolar Sirdaryoga yetib bormaydi. Sirdaryoning ogʻzida koʻp tarmoqli va kanallar, koʻllar va botqoqlardan iborat delta hosil qiladi.

Sirdaryoda bahorgi toshqin mart–aprel oylarida sodir boʻlib, havzaning tekislik qismida va togʻ etaklarida qorlarning erishi natijasida hosil boʻladi. May oyida ikkinchi – asosiy toshqin boshlanadi, iyul oyida maksimal darajaga yetadi. Oqimning minimal darajasi dekabr–yanvar oylarida kuzatiladi. Asosiy toshqin toʻlqinida odatda yomgʻirlar va muzliklar va daryo havzasining turli qismlarida baland togʻ qorlarining notekis erishi natijasida yuzaga kelgan bir qator qisqa muddatli suv toshqinlari kuzatiladi, km^3) Norin, Andijon ($1,6 \text{ km}^3$)) Qoradaryoda. Sirdaryoning ogʻzidan Bekobodgacha boʻlgan baʼzi hududlarda kemalar oʻtishi mumkin.

Norin – Sirdaryoning oʻng tarkibiy qismi, Qirgʻiziston va Oʻzbekiston hududida. Uzunligi 807 km, havzasi maydoni 59,1 ming km^2 . Oʻrtacha suv sarfi $429 \text{ m}^3/\text{sek}$. Norin botigʻi kenglik yoʻnalishida choʻzilgan. Shimoldan havza

Terskey–Olatov, Qirg‘iz va Talas tizmalari, janubdan Atboshi va Farg‘ona tizmalari bilan chegaralangan.

Norin – ichki Tyan–Shandan kelib chiqqan Katta va Kichik Norinning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Katta Norinning asosiy tarkibiy qismi – Qum–Tor daryosi Petrov muzligidan (Oqshiyroq massivi) oqib chiqadi, dengiz sathidan 3786 m balandlikka tushadi va uzunligi 16,8 km gacha bo‘lgan kuchli muz oqimini ifodalaydi. Kichik Norinning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Burxon daryosi Jetimbel tizmasining shimoliy yon bag‘ridagi muzliklardan oqib o‘tadigan ko‘plab daryolardan hosil bo‘lgan.

Katta va Kichik Norinning qo‘shilishida suv oqimi $90 \text{ m}^3/\text{sek}$. Qo‘shilishdan so‘ng Norin vodiysining xarakteri tez–tez o‘zgarib turadi – daryoning kengaygan tekis uchastkalari o‘rnini tor kanyonga o‘xshash daralar egallaydi, ularda shiddatli oqimlar ko‘p, oqimlari juda notinch. Ko‘p sonli irmoqlarni olib, asosiylari Atboshi, Alabuga – chapda; Kekjerti va Ko‘kemeran – o‘ng tomonda Norin Farg‘ona tizmasini kesib o‘tadi. Farg‘ona vodiysiga kirib borgan Norin tog‘ daryosi xususiyatini yo‘qotadi va allyuvial yelpig‘ich bo‘ylab oqib o‘tib, shoxlarga bo‘linadi va kengligi 3,5 km gacha bo‘lgan shag‘al toshli tekislikni hosil qiladi. Farg‘ona vodiysi hududida Norin Qoradaryo bilan qo‘shilib, Sirdaryoni hosil qiladi.

Yuqori oqimida Norin muzlik qorli daryolarga tegishli bo‘lib, yozgi oqimi yuqori bo‘lgan bu tipga xosdir. Pastga qarab, suv havzasi balandligining pasayishi va oziqlanish sharoitining o‘zgarishi sababli, oqimning yillik taqsimoti asta–sekin o‘zgarib turadi. Katta Farg‘ona kanali Norindan boshlanadi. Daryoda To‘xtagul, Uchqo‘rg‘on, Kurpsoy, Toshko‘mir GESlari bor.

Qoradaryo – Qirg‘iziston va O‘zbekiston hududidagi Sirdaryoning chap qismi. Uzunligi 180 km, havzasi maydoni 30,1 ming km^2 . O‘rtacha suv iste‘moli $120 \text{ m}^3/\text{sek}$. Farg‘ona va Oloy tizmalarining yon bag‘irlaridan boshlanuvchi Qorako‘lja va Tar daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Dastavval Qoradaryo keng vodiy bo‘ylab baland shoxlangan shag‘alli kanalda oqadi. Daryo Farg‘ona vodiysiga kirishdan oldin Kampirravat darasini yorib o‘tadi va u yerda botqoqli sel bo‘ylab oqib o‘tadi va bir necha shoxlarga bo‘linadi. Ozuqasi qor–muzlikdir. Eng yuqori xarajatlar iyun oyida, eng past – qishda. Asosiy irmoqlari: Qurshob – chapda; Yassi, Ko‘gart va Qoraunkur o‘ng tomonda. Qoradaryo – Andijon suv omborida.

Chirchiq – O‘zbekistondagi daryo, Sirdaryoning o‘ng irmog‘i. Uzunligi 155 km, Chotqol manbalaridan 328 km, havzasi maydoni 14,9 ming km^2 . Manbada o‘rtacha suv sarfi $221 \text{ m}^3/\text{s}$. Chotqol va Pskem daryolarining Chorvoq suv omboriga qo‘shilishidan hosil bo‘lib, undan bevosita Chirchiq daryosi oqib chiqadi. Chorvoq suv omboridan keyin Chirchiqqa faqat ikkita nisbatan katta irmoqlar – Ugom va Oqsakotasoy kiradi. Yuqori qismida (taxminan 30 km) Chirchiq kanyonda oqadi, vodiyan pastda kengayib, zaif ifodalangan.

Chirchiq tekislikka kirgach, uning suvlari sug‘orish va gidroenergetika ehtiyojlari uchun intensiv ravishda olinadi va shuning uchun daryoning suvliligi kamayadi. Oziqlanishi qorning ustunligi bilan aralashtiriladi. G‘azalkent to‘g‘oni

ustida Boʻzsuv kanali Chirchiqdan oʻngga, Uchbirlik toʻgʻoni ustida, Qorasuv kanali chapga chiqib ketadi, Chirchiqdan pastda boshqa kanallar oqib oʻtadi.

Chotqol – Chirchiqning asosiy tarkibiy qismi, Talas Olatotining janubi–gʻarbiy yon bagʻirlaridan boshlanadi. Chotqol oʻzining eng katta irmogʻi Chandalashni oʻngdan olib, chuqur daryoga aylanadi. Yuqori oqimda u keng qadimiy muzlik vodiysida oqadi. Ters daryosining quyilishidan pastda daryo vodiysi torayib, chuqur daraga aylanadi va u Chorvoq suv omboriga quyilishida tugaydi.

Pskom – Chirchiqning ikkinchi tarkibiy qismi, Oygaing va Maydantal daryolarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan Talas Olatau muzliklaridan boshlanadi. Yuqori oqimda daryo qadimgi muzlik vodiysiga kesilgan keng toshli kanal boʻylab oqadi. Turpakbel irmogʻining yorilishi bilan birga daryo tor kanyonga oʻxshash dara boʻylab oqib oʻtadi va tez oqimlar va yoriqlar hosil qiladi.

Oxangaron (Angren) – uzunligi 233 km, havzasi maydoni 5,3 ming km². Oʻrtacha suv isteʼmoli 20,2 m³/sek. Chotqol tizmasining janubiy yon bagʻirlaridan oqib tushadigan koʻp sonli soylardan hosil boʻlgan. Ohangaronning yuqori va oʻrta oqimida chuqur kanyon Angren platosini kesib oʻtadi, undan chiqish joyida daryo vodiysi shimoli–gʻarbda Chotqol tizmasining davomi va janubi–sharqda Kuramin tizmasi oʻrtasida keng dara boʻladi. Quyi oqimida Ohangaron Chirchiq vodiysiga yorilib, Sirdaryoga quyilmaguncha ikkinchisiga parallel ravishda oqadi. Vodiyning yuqori va oʻrta qismlarida Oxangaronning oʻng irmoqlari Chotqol tizmasidan pastga oqib, chuqur daralar hosil qiladi. Oxangaron platosiga yetib borganida ular tekis daryolar xarakterini oladi va sokin oqimi va qiyshiqligi bilan ajralib turadi. Angrenga yaqinlashganda irmoqlarning tushishi keskin kuchayadi va ular unga chiroyli sharsharalar bilan tushadi. Angren shahrining tepasida Ohangaron suv ombori joylashgan.

Soʻx – Qirgʻiziston va Oʻzbekistondagi daryo. Uzunligi 124 km, havzasining maydoni 3510 km². Oloy tizmasining shimoliy yon bagʻirlaridan boshlanib, Fargʻona vodiysida sugʻorish kanallari bilan kesilgan keng allyuvial shamol bilan tugaydi. Oziqlanishi muzlik–qor. Iyundan sentyabrgacha yuqori suv. Ogʻizdan 44 km uzoqlikda (Saryqonda qishlogʻi yaqinida) oʻrtacha suv sarfi 42,1 m³/sek. Suvlari sugʻorish uchun ishlatiladi va Sirdaryoga yetib bormaydi.

II–BO‘LIM. Daryo havzasining umumiy suv resurslari hisobi
2.1. Daryoning o‘rtacha yillik hajmi, oqim miqdori va variatsiya
koeffitsiyentini hisobi

Daryo suvi sarfining oqim moduli, ta‘minlanganlik darajasi va variatsiya koeffitsiyenti hisobini bajarishimiz kerak.

Suv resurslari va ularni ta‘minlanganligini aniqlash

Oqimning yillik hajmini aniqlash formulasi quyidagicha:

$$W_y = Q \cdot T ;$$

bu yerda: T – bir yildagi sekundlar soni, $T=31,536 \cdot 10^6$ sek;

Oqim me‘yori quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$W_0 = \frac{\sum W_y}{n} ;$$

bu yerda: $\sum W_y$ – yer usti suv hajmlarining yig‘indisi;
n – kuzatilgan yillar soni.

$$P = \frac{m-0,3}{n+0,4} * 100;$$

bu yerda: P – ta‘minlanganlik darajasi;
m – kuzatilgan yillar tartibi;

$$K = \frac{W_t}{W_y} ;$$

bu yerda: K – modul koeffitsiyenti;

$$C_v = \sqrt{\frac{\sum (K - 1)^2}{n - 1}}$$

bu yerda: C_v – daryoning variatsiya koeffitsiyenti.

Barcha hisob–kitoblar jadval ko‘rinishida olib boriladi.

O‘rtacha yillik hajm, oqim miqdori va variatsiya koeffitsiyentini hisobi

1 – jadval

№ n	Kuzatilgan yillar	Q m³/s	W_y mln.m³	W_o mln.m³	m	W_t	K	K-1	(K-1)²	P, %	C_v
1	2003	459,5833	14493,4189	14598,6859	1	31065,5869	2,13	1,128	1,272	3,80	0,38
2	2004	556,4167	17547,1571		2	19985,94	1,37	0,369	0,136	9,24	
3	2005	307,5833	9699,9469		3	19807,23495	1,36	0,357	0,127	14,67	
4	2006	633,7500	19985,94		4	17547,1571	1,2	0,202	0,041	20,11	
5	2007	438,1667	13818,0251		5	17534,016	1,2	0,201	0,04	25,54	
6	2008	454,6667	14338,3691		6	16243,6669	1,11	0,113	0,013	30,98	
7	2009	985,0833	31065,5869		7	15142,5371	1,04	0,037	0,001	36,41	
8	2010	628,0833	19807,2349		8	14493,4189	0,99	-0,01	0,0001	41,85	
9	2011	515,0833	16243,6669		9	14338,3691	0,98	-0,02	0,0004	47,28	
10	2012	480,1667	15142,5371		10	13818,0251	0,95	-0,05	0,003	52,72	
11	2013	556,0000	17534,016		11	12661,704	0,87	-0,13	0,017	58,15	
12	2014	270,8333	8540,9989		12	12385,764	0,85	-0,15	0,023	63,59	
13	2015	255,2500	8049,564		13	10898,3149	0,75	-0,25	0,063	69,02	
14	2016	345,5833	10898,3149		14	10861,5251	0,74	-0,26	0,067	74,46	
15	2017	344,4167	10861,5251		15	9702,5771	0,66	-0,34	0,114	79,89	
16	2018	307,6667	9702,5771		16	9699,9469	0,66	-0,34	0,114	85,33	
17	2019	392,7500	12385,764		17	8540,9989	0,59	-0,41	0,17	90,76	
18	2020	401,5000	12661,704		18	8049,564	0,55	-0,45	0,202	96,19	
			Σ262776,3469					Σ-0,003	Σ2,4035		

Yillik oqim – bu ma’lum bir havzadan yil davomida oqib o’tgan suv miqdori. Kommunal – ro‘zg‘or xo‘jaligini suv bilan ta’minlashda, hamda sug‘orishga, energetikaga va boshqa suv iste’molchilariga zarur bo‘lgan daryo havzasining suv resurslari **50, 75, 80, 90, 95%** lik ta’minlanganlik uchun hisoblanadi.

Yer usti suvining resurslarini hisoblash, ya’ni oqim miqdorini ta’minlanganligini aniqlash quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$W_h = K_i * W_0;$$

bu yerda: K_i – Pirson III – tipidagi jadvaldan olingan koeffitsiyent.

Sirdaryo daryosi oqim miqdorinig ta’minlanganligi

2 – jadval

Ko‘rsatkichlar	Ta’minlanganlik, % da				
	50	75	80	90	95
K_i	0,948	0,708	0,656	0,532	0,448
$W_h = K_i * W_0;$	13839,5542	10335,8696	9576,7379	7766,5009	6540,2113
Kuzatilgan yillar	2008	2017	2005	2014	2015

2.2. Yer usti suvlarini oylar bo‘yicha taqsimlanishini

Suv xo‘jaligi balansi oylar bo‘yicha tuzilishi sababli hisoblangan oqim miqdorlari hajmini oylar bo‘yicha taqsimlash zarur. Buning uchun jadvaldan haqiqiy oqim hajmining taxminan 50%, 75%, 80%, 90%, 95%, lik ta’minlangan oqim hajmiga teng bo‘lganlari tanlanadi. Bu yillar uchun jadvaldan o‘rtacha oylik suv sarfi yozib olinadi va quyidagi formula bo‘yicha daryo suv sarfining oylik hajmi hisoblanadi (3 – jadval).

$$W_{oy} = Q * 86400 * 30(31,28), \text{ m}^3/\text{oy}$$

Keyin esa yillik oqim hajmining oylar bo‘yicha foiz hisobida taqsimlanishi aniqlanadi va bu 50, 75, 80, 90, 95% lik ta’minlanganlik uchun hisoblangan oqimlarni oylar bo‘yicha taqsimlashda foydalaniladi.

Yillik umumiy suv resurslari miqdori quyidagi formula bilan topiladi.

$$W_{um.} = W_{yerosti} + W_{yerusti} + W_{atm.yog'in},$$

Daryo suvining oqib kelayotgan miqdori ($W_{yerusti}$) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$W_{yerusti} = W_{yerusti}^{ho} + W_{yerusti}^{hon.};$$

bu yerda: $W_{yerusti}^{ho}$ – gidrometrik post bo‘yicha hisobga olingan daryo suvining miqdori;

$W_{yerusti}^{hon}$ – hisobga olinmagan daryo suvining miqdori. O‘rta Osiyo uchun V.A.Shults formulasi bo‘yicha taxminan hisobga olingan suv miqdorining 4–5% tashkil qiladi.

$$W_{yerusti} = Q_{o'rt.y.} * T_y; \quad W_{oy} = Q_{o'rt.oy.} * t_{oy};$$

$$T_{ii} = 3600 * 24 * 365 = 31,536 * 10^6 \text{ sek}$$

$$t_{31} = 2,68 * 10^6 \text{ sek}; t_{30} = 2,59 * 10^6 \text{ sek}; t_{29} = 2,51 * 10^6 \text{ sek}; t_{28} = 2,42 * 10^6 \text{ sek.}$$

Yillik yog‘ingarchilik miqdori quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$W_{yog'in} = F_{um} * h * k$$

bu yerda: F_{um} – havzaning umumiy maydoni, m²;

h – ko‘p yillik o‘rtacha oylik yog‘inlar miqdorining yig‘indisi, mm;

k – shimilish koeffitsiyenti bo‘lib, $k = 15\%$.

Ko‘p yillik tajriba tadqiqotlari ma’lumotiga ko‘ra taxminan qish–bahor davrida yoqqan yog‘inlarning 15%–ini yer osti suvlari satxiga singib, borib uni resursini to‘ldiradi, qolgan qismi esa bug‘lanishga sarflanadi.

2.3. Havzaning umumiy suv resurslari hisobi

Yer osti suvining yillik miqdori quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$W_{yerosti} = Q_{yerosti} * T_y, \text{ m}^3/\text{yil}$$

$Q_{yerosti}$ – yer osti suvlar oqimining sarfi bo‘lib, topshiriqda berilgan.

$$W_{um.} = W_{yerosti}^{ho} + W_{yerosti}^{hon} + W_{yerosti} + W_{yog'in}$$

Hisoblashlar jadval ko‘rinishda olib boriladi (4 – jadval).

Hisoblangan yer usti suvlarining oylar bo'yicha taqsimlanishi

3 – jadval

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillik hajm	Oylar											
				I (31)	II (28)	III (31)	IV (30)	V (31)	VI (30)	VII (31)	VIII (31)	IX (30)	X (31)	XI (30)	XII (31)
50%	Haqiqiy yil (2008) yilning o'rtacha Q	m ³ /s	985,0833	331	352	804	976	1890	2470	1670	909	436	694	734	555
	Haqiqiy yil (2008) yilning o'rtacha W	mln m ³ /y	31065,58695	887,08	851,84	2154,72	2527,84	5065,2	6397,3	4475,6	2436,12	1129,24	1859,92	1901,06	1487,4
	Haqiqiy yilning oqim miqdori	%	100	2,86	2,74	6,94	8,14	16,30	20,59	14,41	7,84	3,64	5,99	6,12	4,79
	50 % lik ta'minlangan oqimni taqsimlash	mln m ³ /y	13839,5543	395,1894	379,4902	959,9163	1126,1393	2256,5197	2849,9632	1993,8561	1085,2785	503,0704	828,5845	846,9122	662,6288
75%	Haqiqiy yil (2017) yilning o'rtacha Q	m ³ /s	307,6667	228	273	307	356	331	476	309	356	242	250	254	310
	Haqiqiy yil (2017) yilning o'rtacha W	mln m ³ /y	9702,5771	611,04	660,66	822,76	922,04	887,08	1232,84	828,12	954,08	626,78	670	657,86	830,8
	Haqiqiy yilning oqim miqdori	%	100	6,30	6,81	8,48	9,50	9,14	12,71	8,54	9,83	6,46	6,91	6,78	8,56
	75 % lik ta'minlangan oqimni taqsimlash	mln m ³ /y	10335,8696	650,9229	703,7816	876,4620	982,2221	944,9802	1313,3082	882,1719	1016,3533	667,6903	713,7313	700,7989	885,0268
80%	Haqiqiy yil (2005) yilning o'rtacha Q	m ³ /s	307,5833	311	303	286	274	417	293	296	257	182	335	462	275
	Haqiqiy yil (2005) yilning o'rtacha W	mln m ³ /y	9699,9469	833,48	733,26	766,48	709,66	1117,56	758,87	793,28	688,76	471,38	897,8	1196,58	737

	Haqiqiy yilning oqim miqdori	%	100	8,59	7,56	7,90	7,32	11,52	7,82	8,18	7,10	4,86	9,26	12,34	7,60
	80 % lik ta'minlangan oqimni taqsimlash	mln m ³ /y	9576,7380	822,8931	723,9461	756,7442	700,6459	1103,3647	749,2308	783,2037	680,0114	465,3925	886,3961	1181,38	727,6386
90%	Haqiqiy yil (2014) yilning o'rtacha Q	m ³ /s	255,25	192	270	310	261	419	346	218	247	181	166	254	199
	Haqiqiy yil (2014) yilning o'rtacha W	mln m ³ /y	8049,564	514,56	653,4	830,8	675,99	1122,92	896,14	584,24	661,96	468,79	444,88	657,86	533,32
	Haqiqiy yilning oqim miqdori	%	100	6,39	8,12	10,32	8,40	13,95	11,13	7,26	8,22	5,82	5,53	8,17	6,63
	90 % lik ta'minlangan oqimni taqsimlash	mln m ³ /y	7766,5009	496,4655	630,4232	801,5849	652,2188	1083,4325	864,6272	563,6952	638,6822	452,3050	429,2358	634,7263	514,5658
95%	Haqiqiy yil (2015) yilning o'rtacha Q	m ³ /s	345,5833	248	329	308	793	717	338	192	214	224	270	286	228
	Haqiqiy yil (2015) yilning o'rtacha W	mln m ³ /y	10898,3149	664,64	796,18	825,44	2053,87	1921,56	875,42	514,56	573,52	580,16	723,6	740,74	611,04
	Haqiqiy yilning oqim miqdori	%	100	6,10	7,31	7,57	18,85	17,63	8,03	4,72	5,26	5,32	6,64	6,80	5,61
	95 % lik ta'minlangan oqimni taqsimlash	mln m ³ /y	6540,2113	398,8585	477,7973	495,3566	1232,5524	1153,1515	525,3502	308,7937	344,1763	348,1611	434,2412	444,5271	366,6925

Daryo havzasining umumiy (ekspluatatsion) suv resurslari hisobi jadvali

4 – jadval

	o'lchov birligi	Yillik hajm	Oylar											
			I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
50% li ta'minlanganlik														
1.Yer usti suvlari: a) Hisobga olingan	mln m ³ /yil	13839,5543	395,1894	379,4902	959,9163	1126,1393	2256,5197	2849,9632	1993,8561	1085,2785	503,0704	828,5845	846,9122	662,6288
б) Hisobga olinmagan	mln m ³ /yil	691,9777	19,7595	18,9745	47,9958	56,3070	112,8260	142,4982	99,6928	54,2639	25,1535	41,4292	42,3456	33,1314
2.Yog'in suvlari	mln m ³ /yil	5412	446	495	858	776	660	462	314	83	83	363	446	429
3.Yer osti suvlari	mln m ³ /yil	791,5536	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628
Jami	mln m ³ /yil	20735,0856	926,4117	959,4275	1931,8750	2023,9091	3095,3085	3520,4242	2473,0117	1288,0053	676,6868	1298,9765	1400,7206	1190,7231
75% li ta'minlanganlik														
1.Yer usti suvlari: a) Hisobga olingan	mln m ³ /yil	10335,8696	650,9229	703,7816	876,4620	982,2221	944,9802	1313,3082	882,1719	1016,3533	667,6903	713,7313	700,7989	885,0268
б) Hisobga olinmagan	mln m ³ /yil	516,7935	32,5461	35,1891	43,8231	49,1111	47,2490	65,6654	44,1086	50,8177	33,3845	35,6866	35,0399	44,2513
2.Yog'in suvlari	mln m ³ /yil	5412	446	495	858	776	660	462	314	83	83	363	446	429
3.Yer osti suvlari	mln m ³ /yil	791,5536	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628
Jami	mln m ³ /yil	17056,2167	1194,9319	1299,9335	1844,2479	1872,7960	1718,1920	1906,9364	1305,7432	1215,6338	849,5376	1178,3806	1247,3016	1424,2409
80% li ta'minlanganlik														
1.Yer usti suvlari: a) Hisobga olingan	mln m ³ /yil	9576,7380	822,8931	723,9461	756,7442	700,6459	1103,3647	749,2308	783,2037	680,0114	465,3925	886,3961	1181,3810	727,6386
б) Hisobga olinmagan	mln m ³ /yil	478,8369	41,1447	36,1973	37,8372	35,0323	55,1682	37,4615	39,1602	34,0006	23,2696	44,3198	59,0691	36,3819
2.Yog'in suvlari	mln m ³ /yil	5412	445,5	495	858	775,5	660	462	313,5	82,5	82,5	363	445,5	429

3.Yer osti suvlari	mln m ³ /yil	791,5536	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628
Jami	mln m ³ /yil	16259,1285	1375,5006	1321,1062	1718,5442	1577,1410	1884,4958	1314,6552	1201,8267	862,4747	637,1249	1359,6787	1751,9129	1258,9833
90% li ta'minlanganlik														
1.Yer usti suvlari: a) Hisobga olingan	mln m ³ /yil	7766,5009	496,4655	630,4232	801,5849	652,2188	1083,4325	864,6272	563,6952	638,6822	452,3050	429,2358	634,7263	514,5658
б) Hisobga olinmagan	mln m ³ /yil	388,3250	24,8233	31,5212	40,0792	32,6109	54,1716	43,2314	28,1848	31,9341	22,6152	21,4618	31,7363	25,7283
2.Yog'in suvlari	mln m ³ /yil	5412	445,5	495	858	775,5	660	462	313,5	82,5	82,5	363	445,5	429
3.Yer osti suvlari	mln m ³ /yil	791,5536	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628
Jami	mln m ³ /yil	14358,3796	1032,7516	1222,9071	1765,6269	1526,2925	1863,5669	1435,8214	971,3427	819,0791	623,3830	879,6604	1177,9255	1035,2569
95 % ta'minlanganlik														
1.Yer usti suvlari: a) Hisobga olingan	mln m ³ /yil	6540,2113	398,8585	477,7973	495,3566	1232,5524	1153,1515	525,3502	308,7937	344,1763	348,1611	434,2412	444,5271	366,6925
б) Hisobga olinmagan	mln m ³ /yil	327,0106	19,9429	23,8899	24,7678	61,6276	57,6576	26,2675	15,4397	17,2088	17,4081	21,7121	22,2264	18,3346
2.Yog'in suvlari	mln m ³ /yil	5412	445,5	495	858	775,5	660	462	313,5	82,5	82,5	363	445,5	429
3.Yer osti suvlari	mln m ³ /yil	791,5536	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628	65,9628
Jami	mln m ³ /yil	13070,7755	930,2643	1062,6500	1444,0872	2135,6428	1936,7719	1079,5805	703,6962	509,8479	514,0319	884,9160	978,2162	879,9900

III – BO‘LIM. Suv xo‘jaligi majmuasi (SXM) qatnashuvchilarining suv bilan ta‘minlanishi va oqova suv chiqarish hisobi

3.1. Kommunal–ro‘zg‘or xo‘jalikni suv bilan ta‘minlash

Ilmiy tekshirish tashkilotlari tomonidan shahar va qishloqlarda aholi suv sarf qiladigan miqdori hamda shahar va qishloq xo‘jalik korxonalarida suvni sarf qilish miqdori o‘rganilib, suv iste‘moli me‘yorlari aniqlanadi. Suv iste‘moli deganda bir kunda iste‘molchilarning sarf qilgan suvlari tushuniladi. Bu me‘yor iste‘molchi turiga va ishlatish usuliga bog‘liq. Suv iste‘moli me‘yorlari “**Shaharsozlik normalari va qoidalari**” da keltirilgan.

Har bir kishi uchun kommunal – ro‘zg‘or xo‘jalik suv iste‘mol me‘yori **ShNvaQ 2.04.02.2019** bo‘yicha shahar, sanoat markazlari va qishloq xo‘jalik tumanlari uchun qulaylik darajasi (binolarning sanitar texnik qurilmalar bilan jixozlanganligi) ga qarab va iqlim sharoitiga bog‘liq holda qabul qilinadi. Bu me‘yorga ichimlik suv iste‘moli, kommunal extiyojlar, yong‘in o‘chirish, oziq–ovqat sanoatini suv bilan ta‘minlash, o‘simlik va daraxtlarni sug‘orish va boshqa maqsadlar uchun kerak bo‘lgan sarflar kiradi.

Aholi yashash joylaridagi har bir kishining suv iste‘molidan xosil bo‘ladigan oqova suv me‘yori **ShNvaQ 2.04.02.2019** bo‘yicha aniqlanadi.

Shahar va qishloq aholisi sonini hozirgi zamon, yaqin kelajak va uzoq kelajak uchun topishimiz lozim. Bu esa quydagicha topiladi:

$$A_{2022}^{HZ} = F_{um.} * P_{kishi}$$

bu yerda: $F_{um.}$ – havzaning umumiy maydoni. km²;

P_{kishi} – aholi zichligi, odam/km².

Aholini o‘sishi har davr uchun quyidagicha topiladi:

$$A_{2027}^{YaK} = A_{2022}^{HZ} + (A_{2022}^{HZ} * \alpha_1) * 5$$

$$A_{2037}^{UK} = A_{2027}^{YaK} + (A_{2027}^{YaK} * \alpha_2) * 10$$

bu yerda: α_1, α_2 – aholini o‘sish koeffitsiyenti, topshiriqda beriladi, $\alpha_1 = 2,5\%$, $\alpha_2 = 2,3\%$.

Hisob-kitoblar jadval ko‘rinishida bajariladi.

Shahar va qishloq aholisining miqdori va nisbati

5 – jadval

Aholi	Hisoblash davrlari					
	Hozirgi zamon		Yaqin kelajak		Uzoq kelajak	
	%	miqdori	%	miqdori	%	miqdori
Hammasi	100	12100000	100	13612500	100	16743375
Shahar aholisi	42,4	5130400	46,2	6288975	50	8371688
Qishloq aholisi	57,6	6969600	53,8	7323525	50	8371688

Shahar va qishloq aholisi uchun suv iste‘moli va oqova suv chiqarish hajmlari quydagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

Suv iste'moli hajmi (m^3/yil);

Hozirgi zamon:

$$1) W_{shah}^{SI} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{SI} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{SI} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{SI} * 365}{1000} =$$

Yaqin kelajak:

$$1) W_{shah}^{SI} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{SI} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{SI} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{SI} * 365}{1000} =$$

Uzoq kelajak:

$$1) W_{shah}^{SI} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{SI} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{SI} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{SI} * 365}{1000} =$$

Oqova suv hajmi (m^3/yil)

Hozirgi zamon:

$$1) W_{shah}^{OS} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{OS} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{OS} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{OS} * 365}{1000} =$$

Yaqin kelajak;

$$1) W_{shah}^{OS} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{OS} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{OS} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{OS} * 365}{1000} =$$

Uzoq kelajak;

$$1) W_{shah}^{OS} = \frac{A_{shah} * N_{shah}^{OS} * 365}{1000} =$$

$$2) W_{qish}^{OS} = \frac{A_{qish} * N_{qish}^{OS} * 365}{1000} =$$

O'lchov birligi mln. m^3/y . da, hisoblashlar orqali aniqlab jadvalga yozamiz.
bu yerda: A_{shah} , A_{qish} – hisobiy davrlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi soni;

N_{shah}^{SI} , N_{qish}^{SI} – bir kishi uchun suv iste'moli me'yori shahar va qishloq uchun,
l/sut;

N_{shah}^{OS} , N_{qish}^{OS} – bir kishi uchun oqova suv chiqarish me'yori shahar va qishloq
uchun, l/sut;

365 – yildagi kunlar soni.

Kommunal ro'zg'or xo'jaligida suv iste'moli va oqova suv hajmi

6 –jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Hisoblash davrlari		
			<u>Hozirgi zamon</u>	<u>Yaqin kelajak</u>	<u>Uzoq kelajak</u>
Sutkalik suv iste'moli me'yori					
1	1. Shahar	l/sut	230	250	260
	2. Qishloq	l/sut	120	140	170
Sutkalik oqova suv chiqarish me'yori					
2	1. Shahar	l/sut	200	210	230
	2. Qishloq	l/sut	100	115	140
Suv iste'moli hajmi					
3	1. Shahar	mln m ³ /yil	430,6971	573,8690	794,4731
	2. Qishloq	mln m ³ /yil	305,2685	374,2321	519,4632
Oqova suv chiqarish hajmi					
4	1. Shahar	mln m ³ /yil	374,5192	482,0499	702,8032
	2. Qishloq	mln m ³ /yil	254,3904	307,4050	427,7932
5	Umumiy suv iste'moli hajmi	mln m ³ /yil	735,9656	948,1011	1313,9364
6	Umumiy oqova suv hajmi	mln m ³ /yil	628,9096	789,4549	1130,5964

Kommunal ro'zg'or xo'jalik oqova suvlarini ishlatish shakllari

7 –jadval

№	Hisoblash davrlari	Umumiy oqova suv hajmi mln m ³ /yil	<u>Daryoga tashlanadigan qismi</u>		<u>Tozalanib sug'orishga ishlatiladigan qismi</u>	
			%	mln m ³ /yil	%	mln m ³ /yil
1	Hozirgi zamon	628,9096	50	314,4548	50	314,4548
2	Yaqin kelajak	789,4549	25	197,3637	75	592,0912
3	Uzoq kelajak	1130,5964	0	0	100	1130,5964

KRX da suv iste'mol qilish, oqova va qaytmas suvlar hajmlarining rejimi

8 – jadval

Hisoblash davrlari	Yillik hajm	Oylar											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1. Suv iste'mol qilish													
	100%	7	7	7,5	7,5	9	11	11	10,5	7,5	7,5	7,5	7
Hozirgi zamon	735,9656	51,5176	51,5176	55,1974	55,1974	66,2369	80,9562	80,9562	77,2764	55,1974	55,1974	55,1974	51,5176
Yaqin kelajak	948,1011	66,3671	66,3671	71,1076	71,1076	85,3291	104,2911	104,2911	99,5506	71,1076	71,1076	71,1076	66,3671
Uzoq kelajak	1313,9364	91,9755	91,9755	98,5452	98,5452	118,2543	144,5330	144,5330	137,9633	98,5452	98,5452	98,5452	91,9755
2. Oqova suv chiqarish													
	100%	7	7	7,5	7,5	9	11	11	10,5	7,5	7,5	7,5	7
Hozirgi zamon	628,9096	44,0237	44,0237	47,1682	47,1682	56,6019	69,1801	69,1801	66,0355	47,1682	47,1682	47,1682	44,0237
Yaqin kelajak	789,4549	55,2618	55,2618	59,2091	59,2091	71,0509	86,8400	86,8400	82,8928	59,2091	59,2091	59,2091	55,2618
Uzoq kelajak	1130,5964	79,1417	79,1417	84,7947	84,7947	101,7537	124,3656	124,3656	118,7126	84,7947	84,7947	84,7947	79,1417
3. Qaytmas suvlar													
Hozirgi zamon	107,0560	7,4939	7,4939	8,0292	8,0292	9,6350	11,7762	11,7762	11,2409	8,0292	8,0292	8,0292	7,4939
Yaqin kelajak	158,6462	11,1052	11,1052	11,8985	11,8985	14,2782	17,4511	17,4511	16,6579	11,8985	11,8985	11,8985	11,1052
Uzoq kelajak	183,3400	12,8338	12,8338	13,7505	13,7505	16,5006	20,1674	20,1674	19,2507	13,7505	13,7505	13,7505	12,8338

Qaytmas suvlar hajmi suv iste'moli hajmidan oqova suvlar hajmini ayrimasidan kelib chiqadi.

$$W_{\text{qaytmas}} = W_{\text{suv iste'moli}} - W_{\text{oqova suv}}$$

3.2. Sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlash

Sanoat korxonasining ishlab – chiqarish sohasi uchun sarf bo'ladigan suv miqdorining me'yori shu sanoat korxonasini texnologik jarayonlariga bog'liq holda aniqlanadi.

Berilgan me'yorga sanoat korxonalarida ichimlik xo'jalik, dushdan foydalanishdagi va ishlab chiqarish jarayoni uchun sarflanadigan suvlar kiradi.

Sanoat korxonasi – tarmoqlarining o'rtacha yillik suv iste'mol hajmi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$W_{san.} = M_{san.} \cdot N_{san.}; m^3/yil$$

bu yerda: $M_{san.}$ – sanoatda ishlab chiqariladigan yillik mahsulot hajmi;

$N_{san.}$ – sanoat mahsulotining birligiga sarflanadigan suv sarfi me'yori, m^3 .

Sanoatni suv bilan ta'minlash uchun asos bo'lib, Umumiy **“Sanoatning turli tarmoqlari uchun suv iste'moli va oqova suv chiqarishni yiriklashtirilgan me'yorlari”** dan qabul qilingan.

Yiriklashtirilgan suv iste'mol me'yoriga ishlab–chiqarishda hamda ichimlik uchun va xo'jalik uchun sarflanadigan suvlar miqdori kiradi.

Qaytmas suv sarfining hajmi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$W_{san}^{QS} = M_{san.} \cdot N_{QS}; m^3/yil$$

bu yerda: N_{QS} – ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan qaytmas suv me'yori, m^3 .

O'zbekiston Respublikasi suv qonunchiligi asoslari talablariga binoan sanoatni suv bilan ta'minlash tizimi yopiq ya'ni qayta foydalaniladigan bo'lishi kerak. Bu talab sanoat korxonalarida oqova suvlarni tozalash asosida, ulardan qayta foydalanish hisobiga erishiladi.

Respublikamizdagi sanoat korxonalarining 50% iga yaqini suvdan foydalanishning yopiq tizimiga o'tgan. Kelajakda uni 100% ga yetkazish rejalashtirilgan.

Sanoatda ishlab–chiqarilayotgan yillik mahsulot hajmi yaqin kelajak va uzoq kelajak uchun aniqlanishi kerak:

Bu yerda: β_1 va β_2 lar mahsulotning o'sish koefitsienti;

$$\beta_1 = 2\%$$

$$\beta_2 = 3\%$$

_____ uchun

sanoat korxonasi nomi yoziladi

Yaqin kelajak

$$M_{san.}^{2027} = M_{san.}^{2022} + ((M_{san.}^{2022} \cdot \beta_1) \cdot 5) =$$

Uzoq kelajak

$$M_{san.}^{2037} = M_{san.}^{2027} + ((M_{san.}^{2027} \cdot \beta_2) \cdot 10) =$$

Sanoatda suv iste'moli va oqova suv chiqarish hajmi

9-jadval

Sanoat korxonasi turi	O'lchov birligi	Yillik ishlab chiqarish hajmi	Suv iste'moli		Qaytmas suvlar		Oqova suvlar hajmi $W_1 - W_2$	Ishlatilishi			
			Me'yor m^3	Hajmi mln. m^3 W_1	Me'yor m^3	Hajmi mln. m^3 W_2		%	<u>Qayta ishlash</u>	%	<u>Daryoga tashlash</u>
<i>Hozirgi zamon</i>											
meva sabzavot	tonna	1500000	3,06	4,59	0,28	0,42	4,17	50	2,085	50	2,085
ammiyakli selitra	tonna	1100000	3,335	3,6685	1,1	1,21	2,4585		1,2293		1,2293
listli oyna	m ²	1000000	12,84	12,84	1	1	11,84		5,92		5,92
Jami				21,0985		2,63	18,4685		9,2342		9,2342
<i>Yaqin kelajak</i>											
meva sabzavot	tonna	1650000	3,06	5,049	0,28	0,462	4,587	75	3,44025	25	1,14675
ammiyakli selitra	tonna	1210000	3,335	4,03535	1,1	1,331	2,70435		2,0282625		0,6760875
listli oyna	m ²	1100000	12,84	14,124	1	1,1	13,024		9,768		3,256
Jami				23,2083		2,893	20,3153		15,2365		5,0788
<i>Uzoq kelajak</i>											
meva sabzavot	tonna	2145000	3,06	6,5637	0,28	0,6006	5,9631	100	5,9631	0	0
ammiyakli selitra	tonna	1573000	3,335	5,2459	1,1	1,7303	3,5156		3,5156		0
listli oyna	m ²	1430000	12,84	18,3612	1	1,43	16,9312		16,9312		0
Jami				30,1709		3,7609	26,4099		26,4099		0

Sanoat korxonalarida suv iste'moli, oqova suv va qaytmas suvlar hajmlarning rejimi

10–jadval

Hisoblash davrlari	Yillik hajm	Oylar											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1. Suv iste'mol qilish													
	100%	8,3	8,3	8,3	8,3	8,4	8,4	8,4	8,4	8,3	8,3	8,3	8,4
Hozirgi zamon	21,0985	1,7512	1,7512	1,7512	1,7512	1,7723	1,7723	1,7723	1,7723	1,7512	1,7512	1,7512	1,7512
Yaqin kelajak	23,2084	1,9263	1,9263	1,9263	1,9263	1,9495	1,9495	1,9495	1,9495	1,9263	1,9263	1,9263	1,9263
Uzoq kelajak	30,1709	2,5042	2,5042	2,5042	2,5042	2,5344	2,5344	2,5344	2,5344	2,5042	2,5042	2,5042	2,5042
2. Oqova suv chiqarish													
	100%	8,3	8,3	8,3	8,3	8,4	8,4	8,4	8,4	8,3	8,3	8,3	8,4
Hozirgi zamon	18,4685	1,5329	1,5329	1,5329	1,5329	1,5514	1,5514	1,5514	1,5514	1,5329	1,5329	1,5329	1,5329
Yaqin kelajak	20,3154	1,6862	1,6862	1,6862	1,6862	1,7065	1,7065	1,7065	1,7065	1,6862	1,6862	1,6862	1,6862
Uzoq kelajak	26,4100	2,1920	2,1920	2,1920	2,1920	2,2184	2,2184	2,2184	2,2184	2,1920	2,1920	2,1920	2,1920
3. Qaytmas suvlar													
Hozirgi zamon	2,6300	0,2183	0,2183	0,2183	0,2183	0,2209	0,2209	0,2209	0,2209	0,2183	0,2183	0,2183	0,2183
Yaqin kelajak	2,8930	0,2401	0,2401	0,2401	0,2401	0,2430	0,2430	0,2430	0,2430	0,2401	0,2401	0,2401	0,2401
Uzoq kelajak	3,7609	0,3122	0,3122	0,3122	0,3122	0,3159	0,3159	0,3159	0,3159	0,3122	0,3122	0,3122	0,3122

3.3. Chorvachilik majmualarini suv bilan ta'minlash

Chorvachilik majmualari aholini eng kerakli kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom-ashyo beradi.

Chorvachilik shakli deb – ishlab chiqarishda chorva mollari sonini oshirishga, mahsuldorligini ko'paytirishga, sifatini yaxshilashga, hamda ozuqa birligi hisobiga yuqori sifatli va arzon mahsulot yetishtirishga qaratilgan, birga zootexnik-veterinariya va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar yig'indisiga aytiladi.

Chorvachilik majmuasidagi suv iste'moli me'yori chorva mollari turiga va yoshiga bog'liq. Har bir chorva va parranda uchun kunlik suv iste'moli me'yori **“Tarmoq texnologik loyihalash me'yorlari”** dan olinadi.

Bu me'yorga mollarni turish xonalarini va kataklarni tozalash, sut idishlarini yuvish, sug'orish, yem tayyorlash, sutni sovitish va boshqalar uchun ishlatiladigan suvlar kiradi.

Turli chorva mollari uchun suv iste'moli hajmi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$W = \frac{Ch \cdot N \cdot 365}{1000} ; \quad \text{m}^3 / \text{yil}$$

bu yerda: Ch – chorva moli soni;

N – har bir chorva moli uchun suv iste'moli me'yori, l/sut.

Chorvachilik majmualaridan chiqadigan oqova suvining miqdorini umumiy suv iste'moli hajmidan 70 – 90% miqdorda olinadi, **ya'ni oqova suvlar hajmi suv iste'mol hajmining 80% teng deb olinadi.**

Chorvachilik majmualaridagi chorva mollariga va parrandalarga ichimlik sifatidagi suv berilishini, suvning xarorati esa 8–10 °C bo'lishi zarur.

Suv iste'moli va oqova suv hajmlari hisobi jadval shaklida olib boriladi.

Parranda va hayvonlarning o'rtacha bir kunlik suv iste'moli me'yori

11–jadval

№	Nomi	Bir bosh uchun, l/sut
1	Yirik shoxli qoramol (YShQ)	100
2	Ot	80
3	Echki	8
4	Qo'y	10
5	Tovuq	1
6	O'rdak va g'oz	2,5
7	Kurka	1,5

Suv iste'moli hajmi (m^3/yil):

1. Yirik shoxli qoramol uchun:

$$\gamma_1 = 3\% \quad \gamma_2 = 5\%$$

Hozirgi zamon uchun:

$$1) W = \frac{Ch_{2022} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Yaqin kelajak uchun:

$$Ch_{2027} = Ch_{2022} + ((Ch_{2022} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$2) W = \frac{Ch_{2027} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Uzoq kelajak uchun:

$$Ch_{2037} = Ch_{2027} + ((Ch_{2027} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$3) W = \frac{Ch_{2037} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

2. Parranda uchun

Hozirgi zamon uchun:

$$1) W = \frac{Ch_{2022} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Yaqin kelajak uchun:

$$Ch_{2027} = Ch_{2022} + ((Ch_{2022} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$2) W = \frac{Ch_{2027} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Uzoq kelajak uchun:

$$Ch_{2037} = Ch_{2027} + ((Ch_{2027} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$3) W = \frac{Ch_{2037} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

3. Qo'ylar uchun

Hozirgi zamon uchun:

$$1) W = \frac{Ch_{2022} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Yaqin kelajak uchun:

$$Ch_{2027} = Ch_{2022} + ((Ch_{2022} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$2) W = \frac{Ch_{2027} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Uzoq kelajak uchun:

$$Ch_{2037} = Ch_{2027} + ((Ch_{2027} \cdot \gamma_1) \cdot 5) =$$

$$3) W = \frac{Ch_{2037} \cdot N \cdot 365}{1000} =$$

Chorvachilik majmualarida suv iste'moli va oqova suvlar hajmi

12 – jadval

№	Chorva mollari	Chorva soni	Suv iste'moli		Oqova suv hajmi mln.m ³ /yil	jumladan			
			Me'yorl l/sut	Hajmi mln.m ³ /yil		%	Daryoga tashlash	%	Tozalab sug'orishga
1. Hozirgi zamon									
1	Y.Sh.Q.	6500	100	0,2373	0,1898	50	0,0949	50	0,0949
2	Parranda	775000	5	1,4144	1,1315	50	0,5658	50	0,5658
3	Qo'ylar	135000	10	0,4928	0,3942	50	0,1971	50	0,1971
				2,1444	1,7155		0,8578		0,8578
2. Yaqin kelajak									
1	Y.Sh.Q.	7475	100	0,2728	0,2183	25	0,0546	75	0,1637
2	Parranda	891250	5	1,6265	1,3012	25	0,3253	75	0,9759
3	Qo'ylar	155250	10	0,5667	0,4533	25	0,1133	75	0,3400
				2,4660	1,9728		0,4932		1,4796
3. Uzoq kelajak									
1	Y.Sh.Q.	11213	100	0,4093	0,3274	0	0	100	0,3274
2	Parranda	1336875	5	2,4398	1,9518	0	0	100	1,9518
3	Qo'ylar	232875	10	0,8500	0,6800	0	0	100	0,6800
				3,6990	2,9592		0		2,9592

Izoh: Chorvachilik majmualarida suv iste'molini 80% ni oqova suv tashkil etadi. Chunki chorvachilikda ko'proq oqova suv shakllanadi: chorvalarni cho'miltirish, yem xashak tayyorlash va x.k.

Chorvachilik majmualarida suv iste'moli, oqova va qaytmas suv hajmlarining rejimi

13 – jadval

Hisoblash davrlari	Yillik hajm mln. m ³ /yil	Oylar											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1. Suv iste'mol qilish													
	100%	7	7	7,5	7,5	9	11	11	10,5	7,5	7,5	7,5	7
Hozirgi zamon	2,1444	0,1501	0,1501	0,1608	0,1608	0,1930	0,2359	0,2359	0,2252	0,1608	0,1608	0,1608	0,1501
